

## ПАХЛАВОН МАХМУД РУБОИЙЛАРИ ТАҲЛИЛИ

*Omonova Dilnoza Xolmamat qizi,*  
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika*  
*universiteti 2-kurs talabasi*  
*dilnozahero@gmail.com +99890 5181049*

*Omanova Mubora,*  
*TDPU dotsent v.b., PhD*

**Аннотатсия:** XIII asrning ikkinchi yarmi- XIV asr boshlarida yashab ijod etgan faylasuf shoirlardan biri Pahlavon Mahmuddir. Ma'lumki, o'z adabiy faoliyatida faqat ruboiy janrida ijod qilib, butun falsafiy qarashlarini shu janr bag'riga joylab, uning tematik doirasini belgilab bergan olim va shoir Umar Xayyom bo'lgan. Pahlavon Mahmud esa she'riyatda ham, falsafada ham Xayyomning zakovatli davomchisidir. Chunki fors adabiyotida ham, turk adabiyotida ham Umar Xayyomdan so'ng Pahlavon Mahmuddek faqat ruboiy yozgan shoir uchramaydi. Maqolada ushbu ijodkorning ruboiylari va ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi.

**Калит so'zlar:** fors-tojik adabiyoti, ruboiy, «Kanzul-haqoiq», Umar Xayyom, Ogahiy ruboiylari, javonmardlik tariqati, tasavvuf

**Аннотация:** Пахлавон Махмуд — один из поэтов-философов, живших во второй половине 13 века и начале 14 века. Известно, что Умар Хайям, ученый и поэт, творивший в своей литературной карьере только в жанре рубаи, поместил в этот жанр все свои философские воззрения и определил его тематический охват. Пахлаван Махмуд — умный последователь Хайяма как в поэзии, так и в философии. Потому что ни в персидской, ни в турецкой литературе после Омара Хайяма нет поэта, который писал бы только рубаи, как Махмуд Пахлаван. В статье рассматриваются рубаи этого создателя и их особенности.

**Ключевые слова:** персидско-таджикская литература, рубаи, «Канзул-хакайк», Умар Хайям, Агахи рубаи, секта молодежи, суфизм.

**Annotation:** Pahlavon Mahmud is one of the philosopher-poets who lived in the second half of the 13th century and the beginning of the 14th century. It is known that Umar Khayyam, a scientist and poet, created only in the rubai genre in his literary career, placed all his philosophical views in this genre and defined its thematic scope. Pahlavan Mahmud is an intelligent follower of Khayyam both in poetry and philosophy. Because neither in Persian literature nor in Turkish literature, after Omar Khayyam, there is no poet who wrote only Rubai like Mahmud Pahlawan. The article examines the rubai of this creator and their specific features.

**Key words:** Persian-Tajik literature, rubai, "Kanzul-haqaiq", Umar Khayyam, Agahi rubai, sect of youth, Sufism

Markaziy Osiyolik mutafakkir-u shoirlari haqida ma'lumotlarning aks etishi fors-tojik tilidagi adabiyot rivojida Rudakiy, Nosir Xusrav, Umar Xayyom, Adib Sobir Termiziy, Firdavsiylarning o'rni va ular yozgan asarlarning mazmuni ham o'quvchilar bilim doirasini anchagina kengaytiradi. Yuqorida sanab o'tilgan so'z san'atkorlarining asarlari xalqimiz ma'naviy merosining toza sarchashmalari hisoblanadi. Shunday so'z san'atkorlaridan biri Pahlavon Mahmud XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida yashab ijod etgan mutafakkir, faylasuf va shoirdir. U 1248-yilda Xiva yaqinida tug'ilgan. U jismoniy jihatdan baquvvat yigit bo'lib o'sadi, polvonlik bilan shug'ullanadi. Xorazmning ko'p shaharlarida va Hindistonga borib kurash tushadi, doim g'alaba qozonadi. Shuning uchun u «Pahlavon Mahmud» nomi bilan shuhrat topadi.

Hikoya qilinishicha, Pahlavon Mahmud bir jangda Hindiston shohi Roy Ropoy Cho'nani o'limdan qutqarib qoladi, buning evaziga qachonlardir Hindistonga asir tushgan xorazmliklarni ozod ettiradi. Otashin vatanparvar Xiva yaqinida Chingizxon qo'shiniga qarshi janglarda halok bo'lgan Xorazm askarlarining qabri ustiga maqbara qurdiradi. Pahlavon Mahmudning asosiy kasbi po'stindo'zlik, telpakdo'zlik edi va shuning bilan birga u ilm-fan, adabiyot bilan ham shug'ullandi.

U mashhur ruboiynavis Umar Xayyomning izidan borib, fors-tojik tilida ko'p original ruboiylar yaratdi. U «Kanzul-haqoyiq» («Haqiqatlar xazinasini») nomli bir masnaviy ham yaratgan. Shoirning bizgacha bir necha yuz ruboiysi yetib kelgan. Uning ruboiylarida moddiy borliqning foniyiligi, inson, tabiat haqida fikr yuritiladi, odob-axloq, Vatanga muhabbat, mehmondo'stlik, mardlik, halollik to'g'risidagi mavzular asosiy o'rinni egallaydi.

Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,  
Dil qonidan bermoq falakka buyoq,  
Yoniki bir asr zindonda yotmoq –  
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

Xalq orasida keng tarqalib, Pahlavon Mahmudga shoir sifatida shuhrat keltirgan asarlar uning ruboiylaridir. Shoir ruboiylarining umumiy soni aniq emas. Chunki, hozirga qadar shoir ruboiylarini o'z ichiga olgan birorta qadimiy qo'lyozma topilganicha yo'q. Pahlavon Mahmud ruboiylarida uning falsafiy, ijtimoiy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan. Ruboiylardagi tasvir hamma o'rinda aniq, ixcham, ta'sirchan. Pahlavon Mahmud moddiy borliqning manguligi, inson va tabiat, yor vasli va uning lazzati haqida fikr yuritadi. Ruboiylari fikrning ravshanligi, mazmunining teranligi, obrazlarining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Dunyo bamisoli bir zarrin ko'za,  
Suvi goh shirinu, goh achchiq bo'za,  
Ey g'ofil, umringga bino qo'yma ko'p.

Qazoyi muallaq turar bosh uza.

Adib she'riyati hayotiy falsafa bilan yo'g'rilgan. Ularni o'qish orqali hayotdagi sabab va oqibat, butun va qism, tasodif va qonuniyat orasidagi bog'lanishlar tahliliga duch kelamiz. Pahlavon Mahmud ruboiylarida badbinlik, tushkunlik kayfiyatlari emas, balki hayot hodisotlariga ochiq ko'z bilan qarashga da'vat etadi.

Pahlavon Mahmud ruboiylardan birida "Darvesh ila shoh bo'lsa agar ulfat, bu – shoh baxti erur, darvesh uchun kulfat bu" – deb aql ahlining, ma'rifat ahlining bosh vazifasi hamma bilan baravar munosabatda bo'lib, odamlarni o'zaro tenglik asosida bir-birlari bilan munosabatda bo'lishga, bu dunyoning manfaatlariga mute bo'lib, bir-birlarining dillariga ozor yetkazmaslikka da'vat qiladi. Yana boshqa bir ruboiysida Pahlavon Mahmud yozadi:

Yo rab, meni sen zoru ado aylamag'il,  
Shohlarga kunim qo'yima, gado aylamag'il.  
Lutfing ila soch-soqolim oppoq bo'ldi,  
Qo'y, endi meni yuzi qaro aylamag'il

Ogahiy bitgan ruboiylarda Pahlavon Mahmud merosidagi ishqiy insoniy mavzusining mahbubaga uzoq umr tilash ohanglari ham alohida diqqatga molik. Pahlavon Mahmud hazratlari bu mavzudagi ruboiylarda birmuncha ilohiyroq tafakkur qilib, insoniy mahbubani ilohiy mahbuba bilan muayyan ma'noda mushtaraklashtirib yuboradi. Pahlavon Mahmud hazratlarining otashin misralaridagi mahbubaning umri zavol bilmasdir. Shuning uchun ham u oshiqning umri o'tkinchiligiga shafqat bilan qaraydi, rahmdilliklar qiladi. Ruboiy:

Tushdi-yu jahlidan, kelib qoshimg'a,  
Rahm etdi, ne baxt, mening shahid boshimg'a.  
Bir lahza turib ochiq mozorim uzra,  
Xokimni sochib ketdi u o'z boshimg'a

Ko'rib turganimizdek, Pahlavon Mahmud hazratlari tasvirdagi lirik qahramonning mahbubasi uchun inson vafotidan keyingi, uning tani xokka aylanguncha ketadigan vaqt bu – "bir lahza". Ogahiy ustozining tasviridagi mahbuba ana shunday asrlarga lahzalarni jo qilib yashaydigan hikmat egasi, tilsimlar, sohibasi, mangulikka daxldor zotdir.

Pahlavon Mahmud javonmardlik (mard yigit) tariqatining vakili bo'lgan. Uning ijodidan ham tasavvuf tariqi yo'lchisi ekanligi yaqqol seziladi. Hazrat Navoiyning "Favoid ul kibar" devonida bir g'azal bor. Tasavvuf talqiniga bag'ishlangan g'azal shunday boshlanadi.

Birovga musallam tariqi tasavvuf,  
Ki totida mavjud emastur taxalluf.

Ushbu g'azalda aytilganidek, biz ham Pahlavon Mahmud yashab o'tgan umrida, ruboiylarida va shaxsida "xiloflik", "ziddiyat"ni uchratmaymiz. Ijodkorning umr yo'li

ham o'rnak bo'lishga arzirli o'tganidan bu dunyo mehmonxona ekanligini anglab yashaganiga guvoh bo'lamiz va bu qarash ruboiylariga ham singgan. Ruboiylarida umr va uning o'tkinchi ekanligini, chin insoniy sevgini, mardlikni sodda tarzda tasvirlaydi va xushyorlikka da'vat etadi. Uning ijodi bilan tanishgan har qanday o'qirman o'ziga va bosib o'tgan hayot yo'liga bir karra nazar tashlab, ruhiyatida bir yengillik va poklikka bo'lgan intilishni tuyadi. Bu ruboiylarni o'qigan inson albatta o'zi uchun hayot xulosasini chiqaradi.

Yo'lga boqqil, yo'lchi odamlar ketdi,  
G'ofil o'tirmagil, hamdardlar ketdi.  
Bir qavm senga yaqin va uyg'un edi,  
U qavm o'tib, yaqin odamlar ketdi.

Shoir o'tkinchi umrda har bir inson yo'lovchi kabi bu dunyoga kelib, qo'nib ketishini, g'aflat uyqusida qolmaslik kerakligini aytib o'tadi. G'ofil bandalar, ko'zingizni oching, qavm-qarindosh, yaqinlar birin-ketin ketmoqda, shulardan xulosa qiling, o'tkinchi dunyo o'tguligini biling. "Besh kunlik dunyo"da yaqin odamlar ham o'tib ketadi, ularga dilozorlik qilmasdan, borida qadrlash lozim. Pahlavon Mahmud bu ruboiysida yelday uchguvchi umrda yaqinlarni qadrlashga e'tiborini qaratgan.

Dard-u alam bilan umrni sarflash hayf,  
Qayg'u tikanidan jonni asrash hayf,  
Jahon bog'i ichra quyosh gulidek  
G'unchalik lazzatin totmay gullash hayf!

Berilgan qimmatli umrni "dard-u alam bilan", ko'ngil to'lmay yashab o'tish insonga "hayf"dir. Ko'ngil xotirjamligiga nima yetsin. "Qayg'u tikanidan" qochishning esa imkoni yo'q. Bu tikanlar baribir sanchiladi va bizni toblab, komillik sari yetaklaydi. "Qayg'u tikanidan" jonni asrasak komillik sari yaqinlasha olmaymiz. Chindan ham hayotda ko'p g'am-tashvish ko'rgan kishilar bilan suhbatlashish maroqli, ular atrofdagilarni o'ziga ohangrabodek tortadi. Mashaqqatlar davri xuddi gulning g'uncha paytidagi davriga o'xshaydi. Bu davrni hatlab o'tib bo'lmaydi. "G'unchalik lazzatin totmay" turib gullash "hayf" bo'lganidek, inson ham "qayg'u" lar bilan charxlanmay turib yuksalolmaydi.

Gurkiragan olov-dilim yo'ldoshi,  
To'lqin urgan daryo-ko'zlarim yoshi,  
Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za  
Ko'hna do'stlar xoki: qo'li yo boshi.

Inson asli loydan yaralgan, yana loyga qaytib, unga qorishib ketadi. Ko'zagar kulollar yasayotgan idishlar dunyodan o'tib ketgan insonlar xokidan bunyod bo'lganligini tasvirlaydi. Inson zoti borki barchasi ikki unsur, ya'ni tuproq va suvdan yaralgan. Shunday ekan kibr-u havoga berilmay, kamtar bo'lish lozim. Pahlavon

Mahmud qanday yaralganligini yodidan chiqargan kibrli kimsalarni tanqid ostiga olgan. Va bu ruboiy barchaga boradigan joyimiz tuproq ekanligini eslatib turadi.

Tuproq to'shagida yotgan ko'p ko'rdim,  
Qaro yer bag'riga botgan ko'p ko'rdim.  
Yo'qlik olamiga ko'z tashlaganda,  
Kelmagan ko'p ko'rdim, ketgan ko'p ko'rdim.

Bu satrlar ham yuqoridagi fikrlarning davomidir. Pahlavon Mahmud yashagan XIII -XIV asrgacha necha minglab insonlar dunyoga kelib, yashab, "qaro yer bag'riga" ketgan. Shoir zamonidan buyon necha asr o'tdi-yu, bu davr oralig'ida necha minglab insonlar ham kelib, ketdi. Bizdan keyin yana qancha insonlar dunyoga keladi, fikr qilaylik. Tez almashinuvchi dunyoni anglayapmizmi? Shoir "Yo'qlik olamiga" ketganlar va yana qancha umr egalari ketishini kuzatgan-da, kuzatishlarini ruboiy orqali bayon etgan. Bu kuzatishlar esa bizga dasturilamal bo'la oladi.

Do'stim, ertalikning g'amin yemagil,  
Bu bir naqd nafasni g'animat bilgil,  
Bu eski eshikdan o'tarmiz bir-bir,  
Yotgaymiz o'shanda bizlar ko'p ming yil.

Suv kabi oqib ketuvchi umrda nelarga ulgurdik? Yashashning sharti ertangi kun bilan emas bugun bilan yashashdir. Erta kelishi barcha uchun mavhum. "Bu eski eshikdan" har lahzada chiqib ketib qolishimiz mumkin. Shunday ekan, har nafasni g'animat bilib, har on uchun "haykal" qo'ysak arziydi.

Dedim: ayt, umrning ma'nosi nima?  
Dedi: chaqmoq, yo sham yoki parvona,  
Dedim: bu dunyoga bino qo'ygan kim?  
Dedi: yo go'l, yo mast yoki devona.

Shoirning bu ruboiysi ham ibratomuzdir. Shoir savol berish va savoliga javob berish asnosida butun insoniyatni savolga tutmoqda. Bu olamda yashashning "ma'nosi"ni so'rab, kimningdir chaqmoqdek yonib, yashab o'tishini, kimlardir esa shamga, ya'ni nafsga o'zini urib, kuyib ketishi ta'kidlangan. Keyingi misralarda bu dunyoga faqat "go'l", "mast", "devona" kimsalargina bino qo'yganligi ask etgan. Demak, bu dunyoga bino qo'yganlar esa "go'l", "mast", "devona" deyilgan.

Dunyo do'stligiga berma xotir hech,  
Kekdan o'zga undan bo'lmas zohir hech,  
Yuz yil yashasang ham o'lim keladi,  
Yuz mulkni olsang ham bo'lur oxir hech.

Dunyodan uzilish qiyin, sababi uning ne'mat va lazatlaridir. Yer ostida armon ko'p deganlaridek, armonlilar "kek" bilan dunyodan o'tadi. Dunyo molini yiqqan Qorun, Iskandarlarining boyliklari tugul bugun o'zlaridan ham hech vaqo qolmadi. Qancha umr bo'lsa ham, qancha mol-mulk bo'lsa ham tugab "hech"ga aylanadi.

Pahlavon Mahmud ruboiylarida insoniy fazilatlarining o'ziga xos targ'ib qilinishi, badiiy talqin qilinishi shoir ijodida javonmardlik oqimi g'oyalarining ta'siri bor ekanligini ko'rsatadi. Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodi o'quvchilarda Vatanga muhabbat, insonlarga to'g'ri munosabatda bo'lish, adolatparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik kabi fazilatlarini tarbiyalashda muhim manba bo'la oladi. Inson tabiatida uchraydigan salbiy illatlarga munosabat, ya'ni bu illatlarni qoralash, nafrat hissi ham bu ruboiylarni sharhlash jarayonida paydo bo'ladi. Pahlavon Mahmud ruboiylarini ko'zdan kechirgan taqdirda, ular uslubiga xos umumiy xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan mazkur ruboiylarda ko'rganimizdek, ularda, asosan, hayotiy falsafa inson umrining mazmun- mohiyati, mardlik hamda nomardlik bilan bog'langan tushunchalar mushohada etiladi. She'ning mazmuni va shoirning ijtimoiy she'riyati bilan uzviy bog'langan bu hodisalar Pahlavon Mahmud she'riy uslubining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, Pahlavon Mahmud ruboiylari shoirning muayyan vaziyatdagi kayfiyati, o'tkinchi kechinmalarning tasodifiy ifodasi emas, balki faylasuf shoirning jamiyat hodisalari va insoniy munosabatlardan olgan taassurotlar natijasi bo'lmish chuqur mushohadalari hamda falsafiy-axloqiy qarashlarining yorqin poetik ifodasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 1 tom. – Toshkent: 1977.
2. Jalolov T. Nafosat olamida. – Toshkent: 1974.
3. Kim agar ozoddur. (Ruboiylar). – Toshkent: 1992.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-tom. – Toshkent: 2004.
5. H.Hodimiy. Tasavvuf allomalari. – Toshkent: Sharq, 2014.
6. Jalolov T. Pahlavon Mahmud- Puryoyvaliy. – Toshkent: 1975.
7. Buxoriy S.S. Buyuk xorazmiylar. – Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti, 1994.